

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
UMUMIY PEDAGOGIKA KAFEDRASI**

**ZAMONAVIY DUNYO TA'LIMI: YANGI
DAVR MUAMMOLARI – YANGI
YECHIMLAR”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari to‘plami**



ANDIJON 2024

Universal International Scientific Journal



UNIVERSAL

XALQARO ILMIY JURNALI

MAXSUS SONI

2024-YIL, MAY

2024-yil 17-may kuni Andijon davlat universiteti hamda
“UNIVERSAL” xalqaro ilmiy jurnali hamkorligida O‘zbekiston
Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4-iyuldaggi PQ-200 qarori hamda Oliy ta’lim,
fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18 yanvardagi 16-son buyrug‘i
ijrolarini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan **“Zamonaviy dunyo ta’limi: yangi
davr muammolari – yangi yechimlar”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

Ushbu to’plam O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4-iyuldagい
PQ-200 qarori hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18
yanvardagi 16-son buyrug’i ijrolarini ta’minlash maqsadida “**Zamonaviy dunyo**
ta’limi: yangi davr muammolari – yangi yechimlar” mavzusida o’tkazilayotgan
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tayyorlandi.

To’plam barcha ta’lim muassasalarida shu soha bo'yicha shug'ullanuvchi
pedagoglar, mutaxassislar, tadqiqotchilar, talaba-yoshlar va keng jamoatchilik
foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Mas’ul muharrir: Abdutolibov M.Z

Tahrir hay’ati:

- | | |
|----------------------------|--|
| Yuldashev A.S. | – rektor, b.f.d., professor, rais |
| Karimjanov I.A. | – ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.f.d., dotsent, rais o'rinnbosari |
| Mullajonov R.V. | – o'quv ishlari bo'yicha prorektor, f-m.f.n., dotsent |
| Maxkamov M. K. | – axborot texnologiyalari bo'yicha prorektori, f.m.f.n., dotsent |
| Sobirov Sh.K. | – iqtisodiyot va moliya ishlari bo'yicha prorektor |
| Shokirova Ch. | – San`atshunoslik va pedagogika fakulteti dekani, p.f.n., dotsent |
| Abdullayeva N.J. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi professori, p.f.d. |
| Qo`chqarova F.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi professori, PhD |
| Komilova F.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD |
| Xo`jamberdiyev M.S. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti, k.f.n. |
| Atakulova N.A. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD |
| Abdullayev M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti v.b., PhD |
| Yankina R.S. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti |
| Nasirova Z.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |
| Yusupova D.S. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |
| Abdullayeva X.Ya. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |
| Sattarova I.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |

Anjuman materiallarini nashrga tayyorlovchilar:

- | | |
|-----------------------------|---|
| 1. Komilova F.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD |
| 2. Atakulova N.A. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD |
| 3. Abdullayeva X.Ya. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |
| 4. Sattarova I.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |
| 5. Nasirova Z.M. | – Umumiyl pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi |

**OLIY TA’LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR
INTEGRATSIYASI TALABALARNI FAOLLASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA**

*Hakimova Nargiza Supxonovna
Buxoro davlat universiteti,
maktabgacha ta’lim kafedrasи dotsenti, (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim tizimidagi islohotlar, ta’lim sifatiga e’tibor, ta’lim mazmunini tanlashda mazmun va jarayon yaxlitligini ta’minlashda o‘qituvchi mahorati, o‘quv jarayonida innovatsion ta’lim yondashuvlaridan foydalanishning ilmiy asoslari, darsda talabalar faoliyatini bosqichma - bosqich faollashtiruvchi metodlar, zamonaviy yondashuvlar integratsiyasi natijasida talabaning intellektual, ma’naviy, kasbiy layoqatlarini hamda kasbiy dunyoqarashi rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, sifat, mazmuni, jarayon yaxlitligi, mahorat, innovatsion ta’lim, faollashtiruvchi metod, integratsiya, intellekt, ma’naviyat, kasbiy layoqat, dunyoqarash.

Аннотация. В статье изложены вопросы реформирования системы высшего образования, акцента на качестве образования, мастерства учителя в обеспечении целостности содержания и процесса выбора содержания образования, научных основ использования инновационных образовательных подходов в учебном процессе, методов, постепенно активизирующих деятельность учащихся на уроке, развития интеллектуальных, духовных, профессиональных способностей и профессионального мировоззрения студента в результате интеграции современных подходов.

Ключевые слова: высшее образование, качество, содержание, целостность процесса, мастерство, инновационное образование, активизирующий метод, интеграция, интеллект, духовность, профессиональная компетентность, мировоззрение.

Annotation. The article describes reforms in the higher education system, attention to the quality of education, teacher skills in ensuring content and process integrity in the selection of educational content, scientific foundations for the use of innovative educational approaches in the educational process, methods for gradually activating student activities in the lesson, the development of intellectual, spiritual, professional abilities and professional worldview of the student as

Keywords: higher education, quality, content, process integrity, skill, innovative education, activating method, integration, intelligence, spirituality, professional competence, worldview.

Oliy ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim yondashuvlari asosida o‘qitishning o‘ziga xos maqsad va vazifalariga tayangan holda turli shakllari, usullari, yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular muayyan o‘quv harakatlarini faollashtirish, natijani kafolatlash, belgilangan talablar ijrosini ta’minlash, zarur bo‘lgan kompetensiyalarni egallah, kasbiy va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantirish kabi vazifalarni bajarishda xizmat qiladi. Ushbu vazifalar ta’lim jarayonidagi professor-o‘qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi o‘quv-bilish faoliyatini faollashtiruvchi didaktik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonining natijasi nazoratning turli shakllari yordamida aniqlanadi.

Talabalar ilmiy bilimlarni izlanish va qayta ishlash natijasida keng o‘zlashtirib tadbiq qiladilar. Ta’limotlar faoliyatning asosiy turlaridan biriga taalluqli bo‘ladi. Zamonaviy didaktika talabalarning ijodiy faolliklariga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi[1]. Mashg‘ulotlar davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ishlashlari uchun ko‘proq sharoit yaratish kerak. Talabalar mashg‘ulotlar va mustaqil bilim olish jarayonlarida professor-o‘qituvchilar tomonidan ular oldiga qo‘yilgan muammoli topshiriqlarga imkon qadar ijodiy yondashib, savollarga aniq javob topa olishlari kerak.

O‘quv jarayonini jadallashtirish tushunchasi talabalarning o‘quv- bilish faoliyatini rivojlantirish bilan bevosita aloqador. Talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish professor-o‘qituvchining o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minalash maqsadiga yo‘naltirilgan faoliyatining mahsulidir. Ushbu maqsad o‘quv jarayonining muayyan shakllari, mazmuni, usullari va vositalarini tanlashga yo‘naltirilganligi


bilan alohida ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida, talabalarning qiziqishlari, mustaqilliklari, ijodiy faolliklarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda muayyan vaziyatlarni bashorat qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilganligi bilanahamiyatli hisobalanadi.

Bugungi kunda talabalarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish orqali ta’limni startegik yo‘nalishlari ustida fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Ushbu maqsadda talabalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-shaxsiy faolliklarini ham ta’minalash nazarda tutiladi. Chunki ajdodlarimiz har doim shaxsning faolligi va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaganlar[3].

O‘qitishning faol, intensiv metodlari yordamida talabalarning o‘quv- bilish faoliyatini rivojlantirish, imkoniyatlarini kengaytirish mumkin bo‘lsa, o‘sha metodni o‘quv jarayoniga olib kirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki ushbu metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual, ijtimoiy, shaxsiy faolliklarini ta’minalash uchun qulay pedagogik-psixologik muhitni vujudga keltirish imkonini beradi. Bunday muhitda talabalar o‘zlarini mazkur jarayonning faol ishtirokchisi sifatida xis etadilar va o‘quv-bilish faoliyatini amalga oshiradilar. Natijada o‘quv materiallарini to‘liq o‘zlashtirish imkoniyati vujudga keladi. Talablarni faollikka undovchi didaktik prinsiplar professor-o‘qituvchilarga ham, bo‘lajak o‘qituvchilarga ham muayyan talablar qo‘yishni taqozo etadi.

Zamonaviy oliy ta’lim o‘quv jarayoni uchun xos bo‘lgan holatlardan biri ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar orasidagi mustahkam aloqadorlikni ta’minalashdir. Bunday vaziyatda faollashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayniqsa, faollashtiruvchi metodlar talabalarning bilish ehtiyojlarini vujudga keltirish va ularning intellektual imkoniyatlarini kengaytirishda alohida ahamiyatga ega. Ushbu innovatsion-integratsion metodlar yordamida oliy ta’lim muassasalarida rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish mumkin

Oliy pedagogik ta’lim mazmunini tanlashda mazmun va jarayon yaxlitligini ta’minalashga e’tibor qaratish zaruriyati kuchaymoqda. Buyaxlitlik nafaqat o‘quv predmeti mazmunida bilimlarni birin-ketin ifodalashda, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish imkonini beradigan materiallarni tanlashda ham o‘z ifodasini topishi lozim. Ta’lim mazmuniga ijtimoiy tajriba hamda ajdodlarimiz tomonidan taqdim etilgan pedagogik qadriyatlarni ham singdirish talab etiladi. Ta’lim mazmunini tanlashda ajdodlarimiz tomonidan ilgarisurilgan bir qator nazariyalarga tayanish (1-rasmga qarang) maqsadga muvofiq[1]. Mazkur nazariyalarning asosiy vazifasi:




1-rasm. Ta'lim mazmunini tanlashda ajdodlarimiz tavsiya etgan nazariyalar

Shaxs dunyoqarashini hamda faoliyatini tahlil qilish nazariyasi unda mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish haqidagi ta'limotga tayanadi. Ushbu ta'limot ajdodlarimizning kundalik faoliyatida alohida o'rinni egallagan. Ta'lim mazmunini tanlash va tizimlashtirishda yuqoridagi barcha yondashuvlar o'ziga xos ahamiyatga ega. Ularning barchasi shaxsning dunyoqarashini rivojlantirishga oid yondashuvni o'zida mujassamlashtirgan.

Shaxsiy erkinlik pedagogikasining nazariyasi asoslarini buyukajdodlarimiz keng talqin qilganlar. U Avestoda bayon qilingan “ezgu so‘z, ezgu fikr, ezgu amal” g‘oyasi, B.Naqshbandiyning “Dil ba yoru dast ba kor” shiorida o‘z ifodasini topgan. Mazkur yondashuvning asosini yagona mehnat maktabi konsepsiysi bilan bog‘lashi mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi ham ajdodlarimiz tomonidan ilgari surilgan pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Ushbu nazariya doirasida predmetli o'qitish g‘oyasidan voz kechilib, shaxsga yo'naltirilgan konsentrlashgan ta'lim va modulli o'qitish konsepsiylarigataynilgan holda ta'lim mazmunini tanlash imkoniyati kengayadi. Didaktikaning muhim masalalaridan biri o'tmishda ham, bugungi kunda ham ta'lim metodlarini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslashdir. Chunkio'quv jarayonining sifati va samaradorligi, talabalar o'quv-bilish faoliyatining faollashuvi ushbu masalaning optimal echimi bilan bog‘liq. Oliy ta'lim muassasalarida professor o'qituvchi bilan talaba faoliyati hamda ta'lim natijasi yaxlit birlikni tashkil etadi.

Talabalar faoliyati xarakteridan kelib chiqqan holda ularning o'quv-bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlar tasnifi ustida to'xtalamiz. Ushbu metodlarning muayyan qismi mutafakkir ajdodlarimiz pedagogik faoliyatida o'z o'rniga ega bo'lgan. Ta'limning samaradorligi ta'lim oluvchilarining ichki faolligiga bevosita bog‘liq[3]. Metodlarni tanlashning asosiy mezoni sifatida talabalar faoliyatining xarakteriga bog‘liq. Talabalar faoliyatini bosqichma - bosqich faollashtiruvchi metodlar turkumi mavjud (2-rasmga qarang) bo'lib, ular quyidagilardan iborat:



2-rasm. Talabalar faoliyatini faollashtiruvchi metodlar.

Oliy ta’lim jarayonida ushbu faollashtiruvchi metodlardan samarali foydalanish o‘z mazmun - mohiyatiga ko‘ra, talabalarga bilim berish, ko‘nikmalarga ega bo‘lish va malakalar hosil qilish kabi vazifalarni bajarish bilan birga ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatib boradi(1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Oliy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan faollashtiruvchi ta’lim metodlarining mazmuni

| № | Metodlar | Mazmuni |
|---|--|---|
| 1 | Tushuntiruvchi-illustrativ metod | Bunda talabalar turli texnik vositalar yordamida bilimlarni tayyor holda olib o‘zlashtiradilar. Talabalarning muhokamalari, baholovchi fikrlari, reproduktiv tafakkur doirasida namoyon bo‘ladi. Ushbu metod yordamida talabalarga keng ko‘lamli, katta hajmlli axborotlar taqdim etiladi. |
| 2 | Reproduktiv metod | bilimlar namunaga asosan taqdim etiladi. Ushbu o‘rinda talabalarning faoliyati algoritmik xarakter kasb etadi. Barcha o‘quv harakatlari belgilab qo‘yilgan o‘zaro o‘xshash namunalar asosida bajariladi. |
| 3 | Muammoli bayon metodi | Professor-o‘qituvchi o‘quv materialini bayon qilish jarayonida juda ko‘p metodlar va vositalarni qo‘llaydi. Talabalar oldiga muammolar qo‘yadi, muammoli topshiriqlarni shakllantiradi. Shundan keyin dalillar tizimini ochadi, nuqtai nazarlarni qiyoslaydi, bilish topshiriqlarini echish usullarini ko‘rsatib beradi, turli yondashuvlarni qiyoslaydi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilar ilmiy izlanish jarayonining sub’ektlariga aylanadilar. |
| 4 | Qisman izlanuvchi yoki evristik metod | professor-o‘qituvchi rahbarligida talabalar faol izlanish xarakatlarini amalga oshiradilar. Bunda evristik o‘qitish dasturlari va ko‘rsatmalarga tayanadilar. Natijada, talabalarning tafakkur jarayonlari maxsuldar xarakterga ega bo‘lib, o‘quv bilish harakatlari faollashadi, dastur mavzulari va |

| | | |
|---|------------------------------|---|
| | | o‘quv materiallari ustida ishlash ko‘lami kengayadi. Jarayon o‘qituvchi tomonidan bosqichma-bosqich nazorat qilinadi. Bunday metod sirasiga evristik suhbatlarni kiritish mumkin. Ushbu metod yordamida talabalarda ijodiy faoliyat va tafakkur qilishga nisbatan kuchli ishtiyoyq paydo bo‘ladi. Ular seminarlar, to‘garak mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari ijodiy ish turlarida faol ishtirok etadilar. |
| 5 | Tadqiqotchilik metodi | talabalar o‘quv materiallarini tahlil qilgach, muammoni qo‘yadilar, topshiriqlar va ko‘rsatmalarni belgilab oladilar. Ilmiy adabiyotlar va manbalarni mustaqil o‘rganadilar, kuzatish ishlarini amalga oshiradilar. Shuningdek, izlanish xarakteridagi boshqa ishlarni ham amalga oshiradilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quv-bilish harakatlari faollashadi. Mustaqil izlanish tashabbusi tadqiqotchilik faoliyati jarayonida to‘liq namoyon bo‘ladi. O‘quv ishi bilan bog‘liq metodlar tadqiqotchilik metodlari sifatida rivojlanadi. |

Talabalarning bilish harakatlarini faollashtiruvchi metodlar rang - barang bo‘lib, ular bugungi kunda keng qo‘llanilmoqda va oliy ta’lim muassasalarida sifat hamda samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Pedagogika turkum fanlari uchun ham o‘ziga xos metodlar mavjud bo‘lib, ular talabalarning bilish harakatlarini faollashtirishga ko‘maklashadi[3]. Shuningdek, umumdidaktik metodlar ham mavjud bo‘lib, talabalarning bilish harakatlarini faollashtirishga muayyan darajada ko‘maklashadi. Kasbiy talablar zamonaviy ta’limga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirishda kasbiy bilimlar asosiy o‘rinni egallashi lozim. O‘quv jarayonida talabalarning kasbiy bilimlari tarixiy ijtimoiy tajriba va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unlashuvi asosida rivojlantiriladi. Talabalarni kasbiy bilimlarni egallahsha yo‘naltirish ularning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Mazkur bilimlarni talabalar bir vaqtning o‘zida egallahshari mumkin.

Talaba shaxsining hayoti muntazam o‘zgaruvchan, ijtimoiy xodisalarga moslashishni taqozo etadi. Rang-barang ijtimoiy-kasbiy faoliyat va bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni talabalardan bilish faolligini talab qiladi. O‘rganish jarayoni turli yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- munosabat bildirishga o‘rganish,
- kognitiv faoliyatni o‘zlashtirish,
- konseptual bilimlarni egallahsha odatlanish[2].

Talabalar faoliyati uchun xos bo‘lgan holatlardan biri kognitiv faoliyat tajribasini o‘rganishga intilishdir. Talabalarga ta’lim berish jarayoni ularni kasbiy faoliyat tajribasi va fundamental bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bularning barchasi talabaning o‘quv-bilish harakatlari va o‘quv jarayoni natijalari orqali namoyon bo‘ladi. Ta’limjarayonida uning mazmuni bilan bog‘liq holda talabaning turli jihatlari: intellektual, ma’naviy, kasbiy layoqatlari rivojlanadi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyat

sub’ekti sifatida shakllanib, intellektual kasbiy sifatlari tarkib topadi hamda uning kasbiy dunyoqarashi rivojlanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. – T.: 2019. 327 b.
2. Назарова Н.М. Специальная педагогика. М.: «Академия» , 2005. С 345-346
3. Dilova N.G. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash strategiyalari: Monografiya. – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2023. – 120 b

| | |
|---|------------|
| A.B.Isomiddinov | |
| Talabalarda etnomadaniy kompetensiyani shakllantirishning asosiy jarayonlari..... | 86 |
| G.To'rayeva | |
| Xalq ta'lifi tizimi hodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish..... | 89 |
| Насырова З.М., Клеблеев А.Т | |
| Ochovsy prakticheskoy pedagogicheskoy deyatelnosti budushix uchitelye..... | 93 |
| Насырова З.М | |
| Psichologicheskaya pomoshch' shkolam i sem'jam uchenikov v postroenii garmonichnogo razvitiya lichnosti..... | 98 |
| Nasriddinova G.B | |
| Internet tarmog'larini o'smirlar tarbiyasiga ta'siri..... | 102 |
| Hakimova N.S | |
| Oliy ta'lif tizimida zamonaviy yondashuvlar integraciysi talabalarni faollashtiruvchi omil sifatida..... | 105 |
| Xaydarova L.X | |
| Talabalarning axloqiy - estetik dunyoqarashini rivojlantirishda zamonaviy ta'lif yondashuvlaridan foydalanish | 111 |
| Mirahme dova D | |
| "O'qituvchi-Improvizator" tushunchasi: asosiy belgi va xususiyatlar..... | 116 |
| Abdullayeva N.J | |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining deontologik kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar..... | 120 |
| Tulyaganova Sh.E | |
| Tasviriy san'atda dunyo sivilizaciyasini o'rganish omillari..... | 123 |
| Расуходжаева М.А | |
| Problemy, resheniya, novye podkhody oznakomleniya detej s prirodoy okruжаemoy sredoy v doshkolnyx obrazovatelnyx organizatsiyax..... | 130 |
| Маматисақова Ф.М., Мамажонова Ф.А | |
| Chekka xududlarда замонавий (шахсий) кутубхоналар ташкил этиш ва ёшларни kitobxonlik madaniyatini shakllantiriш, rivojlanтириш hamda yoksaltiriшda innovatsion teknologiya..... | 131 |
| Oxunov I.A | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida..... | 135 |
| Isroilov A. | |
| Musiqiy pedagogikaning jamiyat taraqqiyoti o'rni | 139 |
| Джанпесова Г.Э., Мирзаулукова Х.А., | |
| K probleme zdravyya i bezopasnosti sem'yi i rebenka..... | 143 |
| Nurdinov Q.P | |
| Ko'p ovozli kuylash orqali musiqa tarbiyasida muammolarni bartaraf etish..... | 145 |
| Abdulmadjidova M.D | |
| O'quvchilarda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bosqichlari..... | 148 |
| Kadirova D.B., Kodirova D.X | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining estetik madaniyatini shakllantirishda tasviriy san'at fanining ahamiyati..... | 151 |
| Sh. X.Ikromov ., M.I.Qurbanova | |
| O'quv dasturlari uzviyligini ta'minlash — ta'lif sifatini oshiruvchi omil sifatida..... | 154 |
| Odasheva F.M | |
| Tarbiya jarayoni, mazmuni va jamiyatdagi ahamiyati..... | 158 |
| Ro'zmatova Sh.I | |